

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN FARMAKOGNOZIYA VA BOTANIKA ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida farmakognoziya va botanika asoslari talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Farmakognoziya va botanika asoslari

1. Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilish
2. Tarkibida polisaxaridlar va vitaminlar saqlovchi dorivor o'simliklar. Tarkibida lipidlar, alkaloidlar va terpenoidlar saqlovchi dorivor o'simliklar
3. Tarkibida glikozidlar, flavonoidlar va oshlovchi moddalar saqlovchi dorivor o'simliklar
4. Kam o'rganilgan va turli guruh biologik faol moddalar saqlovchi dorivor o'simliklar va mahsulotlar. Yurak kasalliklari va nafas a'zolariga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar
5. Me'da va jigar faoliyatiga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar. Diuretik dorivor o'simliklar va ularning preparatlari

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1.	Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilish	Dorivor o'simlik mahsulotini qabul qilishi, o'rtacha namuna ola biladi, mahsulotni tahlil qila oladi, makroskopik, kimyoviy, biologik, dorivor o'simliklarni tahlil qila oladi, mahsulotlarining tovarshunoslik tahlil qilishni biladi.	20 %	8 ta
2.	Tarkibida polisaxaridlar va vitaminlar saqllovchi dorivor o'simliklar Tarkibida lipidlar, alkaloidlar va terpenoidlar saqllovchi dorivor o'simliklar	Kraxmal, shilliq moddalar hamda tarkibida shu moddalar bo'lgan dorivor o'simliklarni, gulxayri ildizini, zubtutum bargi, laminatsiya tallomi, zig'ir urug'i, oqqaldirmoq bargi o'simliklari, suvda va yog'da eriydigan vitaminlar, na'matak va qoraqat o'simliklarini, gazanda, makkajo'xori, tirnoqgul, jag'-jag' o'simliklari, bodom, kungaboqar, zig'ir, lanolin preparatlarini, qalampir yalpiz, mavrak, valeriana, moychechak o'simliklari mingdevona, bangidevona, zirk o'simliklarini foydalanilishini biladi.	25 %	10 ta
3.	Tarkibida glikozidlar, kumarinlar flavonoidlar va oshlovchi moddalar saqllovchi dorivor o'simliklar	Tarkibida glikozidlar saqllovchi dorivor o'simliklardan qoqio't o'simligi, yurak glikozidlari angishvonagul, bahorgi adonis, may marvaridguli o'simliklarini biladi, fenolglikozidlar saqllovchi dorivor o'simliklardan brusnika o'simligi, kumarinlar saqllovchi dorivor o'simliklardan oqquray o'simliklari, saponinlar saqllovchi dorivor o'simliklardan qizilmiya va jenshen prepratlarini, antrasen unumlari saqllovchi dorivor o'simliklardan sano va aloy prepratlarini, flavonoidalar saqllovchi dorivor o'simliklardan yapon saforasi, dastarbosh o'simliklari, do'ana va ittikanak o'simliklari, arslonquyruq va bo'znoch o'simliklari, oshlovchi moddalar saqllovchi dorivor o'simliklardan eman po'stlog'i, chernika o'simliklarini biladi.	20 %	8 ta
4.	Kam o'rganilgan va turli guruh biologik faol moddalar saqllovchi dorivor	Kam o'rganilgan dorivor o'simliklar va mahsulotlardan maymunjon, qovoq urug'i preparatlarini, turli guruh biologik faol moddalar saqllovchi dorivor o'simliklar va mahsulotlardan piyoz va sarimsoqpiyoz preparatlarini,	15 %	6 ta

	o'simliklar va mahsulotlar. Yurak kasalliklari va nafas a'zolariga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar	hayvonlardan olingan mahsulotlarni, asalari preparatlarini, yurak kasalliklari ishlatiladigan dorivor o'simliklardan tayyorlangan fito preparatlarni, nafas a'zolariga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklardan tayyorlangan fito preparatlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.		
5.	Me'da va jigar faoliyatiga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar Diuretik dorivor o'simliklar va ularning preparatlari	MNS ta'sir etuvchi dorivor o'simliklarni, me'da va ichak faoliyatiga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklardan tayyorlangan fito preparatlarni, jigar faoliyatiga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklardan tayyorlangan fito preparatlarni, qon oqishini to'xtatuvchi dorivor o'simliklarni, diuretik dorivor o'simliklar va ularning preparatlaridan tayyorlangan fito preparatlarini, buyrak kasalliklarida ishlatiladigan dorivor o'simliklarni biladi.	20 %	8 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. M.K.Zufarova, N.A.Musayeva, D.M.Akromova «Farmakognoziya va botanika asoslari amaliyoti» tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent,2007

2. X.X.Xolmatov, O'.A.Axmedov, N.A.Musayeva «Farmakognoziya va botanika asoslari», tibbiyot kollejlari talabalari uchun o'quv adabiyoti. Toshkent,2007

3. "Farmakognoziya" Farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv adabiyoti - Toshkent,2002

4. A.N.Yunusxo'jayev «Farmatsevtik atamalarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati». Toshkent,2004.

5. M.N.Maxsumov, M.M.Malikov "Farmakologiya". Toshkent., 2006y.

6. M.N.Maxsumov, X.X.Xolmatov "Fitoterapiya farmakologiya asoslari bilan birga". Toshkent., 2003y.

7. M.N.Nabiyeva, E.Djo'rayev. "Fitoterapiya ". Toshkent.

8. X.U.Aliyev, M.N.Maxsumov. "Fitoterapiya". O'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2003y.